



SHOXI ZINDA ME'MORIY MAJMUASI: TEMURIYLAR DAVRI KOSHINCHILIK SAN'ATINING YUKSAK NAMUNASI

*Samarqand davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix
yo'nalishi talabasi **Raximova Difuza Qodirjon qizi***

draximova919@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shahridagi eng nodir me'moriy obidalaridan biri bo'lmish Shoxi Zinda ansamblining tashkil topish tarixi, uning shakllanish bosqichlari hamda o'ziga xos me'moriy uslubi tahlil qilinadi. Majmua tarkibidagi Qusam ibn Abbos maqbarasi va Temuriylar davriga oid koshinkor maqbaralarning badiiy va do'zanlik bezaklari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Shoxi Zinda ansamblining O'rta Osiyo me'morchilik san'atidagi tutgan o'rni hamda undagi koshinchilik va sopolsozlik mahorati tarixiy manbalar va me'moriy dalillar asosida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Shoxi Zinda, Samarqand, Temuriylar me'morchiligi, Qusam ibn Abbos, koshinchilik, ganchkorlik, me'moriy ansambl, Islom san'ati, maqbara, moviy koshinlar.

Kirish

Shoxi Zinda maqbarasi — Samarqanddagi aziz-avliyolar dafn etilgan Shoxi Zinda, ya'ni “Tirik shoh” maqbaralar majmuasi o'tmish ajdodlarimiz tarixida alohida o'rin tutadi. O'rta Samarqandning janubiy qismida joylashgan bo'lib, muqaddas ziyoratgohlardandir.

Shoxi Zinda nomiga to'xtaladigan bo'lsak, bu nom Muhammad payg'ambarimizning amakivachchalari Qusam ibn Abbos nomi bilan bog'liq. Qishondin Favhariyning yozishicha, hazrat Qusam ibn Abbos Muhammad (s.a.v.)ni vafot etgandan so'ng yuvganlardan biridir. O'sha chog'da Qusam 6 yoshda bo'lgan. Hatto, payg'ambarimizning hadislarida aynan u kishi to'g'risida quyidagi so'zlar —



Qusam ibn Abbos o'z xulqlari va tashqi ko'rinishlari bilan menga o'xshaydigan shaxslardandir, deyilgan. Hazrat Qusam imom Hasan bilan emishgan aka-ukadir.1

Asosiy qism

Qusam ibn Abbos Hazrat Amir ul-mo'minin Ali ibn Abu Tolib xalifaligi davrida Makka shahrida hokim bo'lgan. uning vafotidan so'ng Muoviya ibn Abu Sufyon zamanida Katta hokimligiga tayinlangan. Usmon (ehtimol Sa'id yoki Sa'd) ibn Abu Said bilan Movaroun-nahrga kelgan. Usmon o'g'li Sa'id Samarqandni olib, xalq musulmonchilikka qabul qilgan, dinni kuchaytirtmoq va shariat hukmlarini yurgizmoq niyatida Qusamni bir qancha islom qo'shini bilan Samarqandda qoldirgan. Unimng asosiy vazifasi mamlakatda islomni targ'ib qilish bo'lgan. Bu esa oson kechmadi. Chunki qadim Movarounnahr xalqi otashparastlikka sig'inardi.

Ular Markaziy Osiyo davlatlarini arablar bosqinchilariga faol kurashga chorladi. Biroq islom lashkarlari qarshiliklarni tobora yengib borib, o'lkaning ichkari qismini ishg'ol qila boshladi. Milodiy 677-yil boshqa dinga e'tiqodchilar shaharga hujum qildi. Samarqand shahri nomozgohida Qusamga o'q tegdi va

1 Ibodat Sattorova Samarqand -2021 "Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar tarixi " uni Bonu-Najiya qabristonidagi g'or yoniga dafn etildi. Keng tarqalgan boshqa bir rivoyatda aytilishicha, Sa'id ibn Usmon Qusam ibn Abbos bilan birgalikda Ustrushonani fath etmoq uchun yo'l tushib, Siyrakasga yetishganda bir necha kun to'xtab dam olishadi. Shu yerdagi janglarning birida Qusam ibn Abbos vafot etadi. Mayit solingantobutni Shaharga jo'natadilar.

Qusam ibn Abbosning onalari Madina ahlining mo'tabar ayoli, Maymuna binti Horisning singlisi bo'lib, ismi Ummu al-Fazldir. Uning yetti farzandi bor edi: Fazl, Abdulloh, Ubaydulloh, Qusam, Ma'bad va Abdurahmon. Bularning barchasi turli mamlakatlarga islom targ'ib etish bilan mashg'ul bo'lib shahid bo'ldilar.

Shoxi Zinda majmuasi o'ziga xos va takrorlanmas bo'lib, dohiyo olamga tarqalgan Misr ehromlari, Toj Mahal kabi yetti mo'jizaning biri desa bo'ladigan maqbaralar turkumidir. U dastlab Samarqand hokimlari va ulamolari tomonidan XI



asrda payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning amakilarining o'g'li Qusam ibn Abbos sharafiga qurilgan.²

Dastavval, bu yerda faqatgina XI asrning ikkinchi yarmida Samarqanddagi ilk qoraxoniylar davrida qurilgan „Tirik shoh“ nomli maqbara bor edi. Bu joyga ilgari ham tub joy aholisi ziyoratlarga kelib turgan. Keyinchalik ushbu hisobga shu yerda 1066-yili Tamg'ach Bo'g'raxon madrasasi qurildi va unga tutash bir qator turkum majmua vujudga keldi. XI–XII asrlarda u yerda sharqdan kelgan boshqa maqbaralar ham vujudga kela boshladi. Arxeologlar XI–XII asr inshootlarining g'arb tomonidagi yo'lakdan qazib topdilar. Ular bezaklari bilan Temur davri maqbaralaridan farq qilgan. O'sha davrda ham Qusam ibn Abbos maqbarasi „muqaddas“ hisoblanib ziyorat qilingan.

XIII asrda mo'g'ul istilochilarining Samarqandga qilgan harbiy yurishlari XI–XII asrga oid ko'plab inshootlarning buzilib, xarobaga aylanishiga sabab bo'ldi. Qabriston XIV asrda qaytadan tiklana boshladi.

2

Amir Temur hukmronlik qilgan (1370–1405) davrda qurilish ishlari juda jadal suratda olib boriladi. Bu inshootlarning ko'pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Turkum majmua Afrosiyobning shimolidan to janubiy shaharning qo'rg'on devorigacha cho'zilgan.

Shoxi Zinda me'morchilik majmuasi 3 qismdan iborat qilib qurilgan. Majmuaga ulkan o'ymakor darvozadan kiriladi. Peshtoq ravoqining g'arbiy devorida Abdulaziz Bahodir ibn Ulug'bek ibn Shohrux ibn Temur tomonidan hijriyning 838-yilida (1434–1435) bunyod etilgani yozilgan.³

Xulosa

Shoxi Zinda me'moriy majmuasi shunchaki tarixiy obida emas, balki O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy, madaniy va me'moriy taraqqiyotini o'zida aks ettirgan nodir durdonadir. VII asrda hazrat Qusam ibn Abbosning Samarqandga kelishi va ushbu hududga dafn etilishi bilan boshlangan tarixiy jarayon XI–XII



asrlarda Qoraxoniylar, XIV–XV asrlarda esa Temuriylar davrida o‘zining eng yuksak me‘moriy cho‘qqisiga erishdi.

Majmua tarkibidagi har bir maqbara, undagi koshinchilik, ganchkorlik va xattotlik san‘atining nafis namunalari o‘z davrining yuksak mahoratini ko‘rsatadi. Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida barpo etilgan muazzam inshootlar bugungi kunda ham o‘zining go‘zalligi, me‘moriy yechimi va mahobati bilan dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Shoxi Zinda majmuasi islom madaniyati, Sharq me‘morchilik maktabi va milliy merosimizning ajralmas qismi bo‘lib, u ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan hamda kelajak avlodga bezavol yetkazilishi lozim bo‘lgan muqaddas ma‘naviy xazinadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Shuhrat Qulmatov , Amiriddin Berdimuhamedov “Samarqand yodgorliklari” Toshkent -2017-yil
- 2.Ibodat Sattorova Samarqand -2021 “Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar tarixi “